



## Modern approach to training future teachers of the deaf in the process of independent education

Oygul TESHABAYEVA<sup>1</sup>

Tashkent State Pedagogical University named after Nizam

### ARTICLE INFO

#### Article history:

Received August 2024  
Received in revised form  
15 September 2024  
Accepted 25 September 2024  
Available online  
15 October 2024

#### Keywords:

competence,  
independent learning,  
deaf teacher,  
students,  
teacher,  
specialization,  
differentiated approach.

### ABSTRACT

Independent education is a type of educational work for students that lays the foundation for acquiring life skills, enhancing social and professional attractiveness, developing personal capabilities, and fostering self-esteem. Additionally, it contributes to the formation of student independence as an important human virtue.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss10/S-pp34-39>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Mustaqil ta'lim jarayonida bo'lajak surdopedagoglarga zamonaviy yondashuv

### ANNOTATSIYA

#### Kalit so'zlar:

kompetensiya,  
mustaqil ta'lim,  
kar o'qituvchi,  
talabalar,  
o'qituvchi,  
mutaxassislik,  
tabaqalashtirilgan  
yondashuv.

Mustaqil ta'lim orqali talabalarning o'quv mehnat turi bo'lib, hayotiy ko'nikmalari, ijtimoiy va kasbiy jozibadorligini, shaxsiy va o'zini o'zi qadrlash imkoniyatlarini egallashiga zamin yaratadi, talabalarning mustaqilligini insoniy fazilat sifatida shakllantirishga hissa qo'shadi.

<sup>1</sup> Lecturer, Department of Deaf Education and Inclusive Education, Tashkent State Pedagogical University named after Nizami. E-mail: tesabaevasamira@gmail.ru

# Современный подход к обучению будущих сурдопедагогов в процессе самостоятельного образования

## АННОТАЦИЯ

### *Ключевые слова:*

компетентность, самостоятельное обучение, глухой педагог, студенты, учитель, специализация, дифференцированный подход.

Самообразование — это форма воспитательной работы учащихся, которая создает основу для приобретения жизненных навыков, социальной и профессиональной привлекательности, развития личных возможностей и самоуважения. Оно способствует формированию студенческой самостоятельности как важной человеческой добродетели.

Jahon ta'lim muassasalarida mutaxassisni o'z-o'zini rivojlantirishga, mustaqil ravishda bilimni ko'paytirishga, innovatsion faoliyatga qodir bo'lgan faol ijodkorni shakllantirish, kreativ qobiliyatini rivojlantirish, ularning mustaqil ishini takomillashtirish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, bo'lajak surdopedagoglarni mustaqil ta'lim olishlari, mustaqil ishlash malakalarini uzluksiz oshirish orqali mutaxassislarning zaruriy kompetensiyalarga ega bo'lishi, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini mustaqil ishini takomillashtirish, shaxsiy kasbiy, ijodiy imkoniyat va integrativ tafakkurini shakllantirish, kasbiy kompetentligini rivojlantirish zarurati ko'zga tashlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining maqsadi etib belgilangan. Oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari shakllantirish, tizimli tahlil qilish, kasbiy-metodik ko'nikmalarini, kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan metodika va texnologiyalar ta'lim jarayoniga keng tatbiq etilmoqda. Mustaqil ta'lim jarayonida bo'lajak surdopedagog-mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish tizimini modernizatsiyalash, optimallashtirish jarayonini samarali amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. "Mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish" vazifasi belgilangan. Shuningdek, unda ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim olishlari, mustaqil ishlash, malakalarini uzluksiz oshirish orqali mutaxassislarning zaruriy kompetensiyalarga ega bo'lishi, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga erishishlari mumkinligi ta'kidlangan. Hozirgi kunda o'quv rejalarida

talabalar o'quv yuklamasining hajmi auditoriya (kontaktli) va mustaqil ta'limning nisbati bakalvriat ta'lim yo'nalishlarida 40/60 foiz nisbatidan 50/50 foiz nisbatigacha, magistratura mutaxassisliklarida 30/70 foiz nisbatidan 50/50 foiz nisbatigacha ajratilgan. Ta'lim dasturining o'zgarishi jarayonida fanlarning bir qator masala va muammolari mustaqil ta'lim orqali o'rganilishi lozim. Mustaqil ta'lim talabalar tomonidan u yoki bu fan bo'yicha dastur materiallaridan bir qismining mustaqil o'zlashtirilishidir. Oliy ta'lim tizimi fan va amaliyot yutuqlari, hamda demokratlashtirish, uzluksizlik, integrativlik, standartlashtirish, moslashuvchanlik va ochiqlik, o'z-o'zini rivojlantirish tamoyillariga asoslanib, milliy va jahon madaniyatining insonparvarlik an'analari saqlash va ularga amal qilgan holda, uzluksiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga asoslanadi. Oliy pedagogik ta'lim talabalarning insonning tabiat, madaniyat, jamiyat, davlat bilan tabiiy munosabatlarini, shaxsni vujudga kelishi jarayonlari haqidagi bilimlarini shakllantirishni o'z ichiga oladi, ularni psixologik, pedagogik, ijtimoiy muammolarning tarkibiy munosabatlarini hisobga olgan holda o'quv kurslarida taqdim etilgan antropologik bilimlar tizimi bilan qurollantirishni nazarda tutadi. Bo'lajak mutaxassis modelini amalga oshirish dasturi nafaqat kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan ilmiy bilimlarni egallashni, balki professionallik, kasbiy mahoratni belgilaydigan kasbiy madaniyat, ko'nikma va qobiliyatlarni ham o'z ichiga oladi. Oliy ta'lim tizimidagi yangi an'analarga muvofiq, o'qituvchilarni tayyorlashning asosiy vazifalaridan biri bu bo'lajak surdopedagoglarning o'z-o'zini o'qitishga bo'lgan ehtiyojini rivojlantirish, kasbiy vazifalarni ijodiy hal qilish, tezkor axborot oqimida harakat qilish qobiliyati, kelajakdagi mutaxassisning aks ettiruvchi madaniyatini shakllantirish, talabalarning o'quv faoliyatini va ularning kasbiy o'sishini loyihalashdir. Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar ta'lim mazmuni bilan chambarchas bog'liq. Yangilanishlar talabalar o'qishini tashkil etishning yangi shakli va usullari haqida ham bosh qotirishni talab etadi. Shu ma'noda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish muhim shaklgina emas, balki ta'lim jarayonining asosini tashkil etuvchi muhim qism bo'lishini taqozo etadi. S. I. Arxangelskiy, V.P. Bepalko, A.A. Verbitskiy, V.I. Zagvyazinskiy, P.I. Pidkasiytlarning ilmiy ishlarida kasbiy pedagogik ta'limning zamonaviy strategiyasi, shu jumladan maxsus pedagogika sohasidagi mutaxassis-kadrlarni tayyorlash masalasi tadqiq etilgan [192, 200, 209, 214, 257.]. Xususan, hozirgi bosqichda OTMdagi o'quv jarayonida mustaqil ta'lim o'z mexanizmi va texnologiyasi bilan samarali yakuniy natija olib kelayotgani ta'kidlanadi. S.I. Arxangelskiy ta'kidlashicha, "mustaqil ish mazmuni o'quvchilarning shaxsiy pozitsiyasi va atrofdagi voqeliklarni baholashlari, shuningdek, boshqalardan mustaqil ravishda harakat qilish doirasi mavjudligini o'z ichiga olishi kerak" [192]. V.I. Zagvyazinskiy e'tiroficha, mustaqil ta'lim pedagog tomonidan muntazam ravishda nazorat qilib turilsa-da, bundan ko'zlangan maqsad asta-sekinlik bilan ushbu faoliyatni talabaning o'ziga topshirishdir [218]. Mustaqil ta'limning to'g'ri tashkil etilishi qator afzalliklarga ega bo'lib, ularni o'zaro aloqadorlikda rivojlantirish samarali yutuqlarga erishishni ta'minlaydi. Muammoning mazkur usulda qo'yilishi bir umrlik ta'limdan umrbod ta'lim olish ta'lim paradigmasidagi ustuvor va yakuniy yo'nalish sifatida belgilangan konsepsiyasiga mos keladi. Bo'lajak surdopedagoglarning mustaqil ishni tashkil etish tayyorgarlik bosqichi, auditoriya va auditoriyadan tashqari vaqtda amalga oshiriluvchi mustaqil ishlarni boshqarish bosqichi, amaliy hisobot bayoni bosqichi doirasida amalga oshiriladi. **Birinchi bosqich** tayyorgarlik bosqichi bo'lib, mustaqil ish uchun vaqt taqsimoti, mustaqil ishni bajarish jadvali va tematik rejasi, mustaqil ishning bajarilish muddati, shakllari va nazorat metodlari,

mustaqil ishni bajarish jarayonida o'zini o'zi boshqarish shakllari va usullarini qamrab olgan muvofiqlashtirilgan bo'lajak surdopedagogning mustaqil ish rejasini tuzishni qamrab oldi. **Ikkinchi bosqich** – auditoriya va auditoriyadan tashqari vaqtda amalga oshiriluvchi mustaqil ishlarni boshqarishni ko'zda tutadi. Bu bosqichda mustaqil ta'lim mashg'ulotlari nazariy (darslik, qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash), amaliy (amaliy topshiriqlarni bajarish, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarda, tashkilotlarida – pedagogik amaliyot bazalarida kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish) va kombinatsiyalangan (aralash-nazariy-amaliy) bo'lishi mumkin. **Uchinchi bosqich** – amaliy hisobot bayoni bosqichi sanalib, bo'lajak surdopedagog tomonidan yozma ishlarni yozish, nazorat topshiriqlarini bajarish, hisobotlar tayyorlash, doklad, referat, kurs ishlarini himoya qilish kabi ish shakllarni qamrab oladi. Dars ishlanmalari, metodika, ko'rgazmali materiallarni tayyorlashda, konspekt yozish, doklad, referat, tezislarni tuzish jarayonida o'qituvchi belgilagan qoidalar asosida bo'lajak surdopedagoglarning mustaqil fikrlashi faollashtirilishi lozim. Fanning muayyan muammolari bo'yicha materialni o'rganishda bo'lajak surdopedagoglarning ularda ko'tarilgan asosiy muammolar bo'yicha umumlashtirish, tahlil qilish, xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Bunday ish mustaqil faoliyatni rag'batlantiradi, ijodkorlik, izlanish manbaiga aylanadi. Bunga o'qituvchining harakat maqsadini mustaqil tushunishga, izlashga qaratilgan munosabati yordam beradi. Albatta, o'qituvchining ma'lum bir materialni idrok etishga munosabati (bo'lajak surdopedagoglarni o'ylashga, fikrlashga, izlashga undasa) muhim rol o'ynaydi. Mustaqil ish uchun qo'shimcha materiallar turli shakllarda taqdim etilishi va bo'lajak surdopedagoglarning faolligi o'qituvchi ko'rsatmalarining qiyinchilik darajasiga bog'liqdir. Buni hisobga olgan holda, bo'lajak surdopedagoglarni o'z vaqtida yanada murakkab ko'nikmalarni o'zlashtirishning yangi bosqichiga o'tkazish kerak. Ushbu ko'nikmalar harakatlarning mustaqilligini, izlanish va o'z ijodkorligini ko'rsatib beradi. Har qanday mustaqil ishni bajarish uchun bo'lajak surdopedagog mustaqil ishning maqsadini aniqlash; kognitiv (muammoli yoki amaliy) vazifalarni aniqlashtirish; belgilangan yoki tanlangan vazifani hal qilish uchun mustaqil ishlashga tayyorligini o'zi baholashi; muammoni hal qilishga olib keladigan yetarli harakat usulini tanlash (uni hal qilish yo'llari va vositalarini tanlash); muammoni hal qilish uchun mustaqil ishlarni rejalashtirish (mustaqil ravishda yoki o'qituvchi yordamida); mustaqil ish dasturini amalga oshirish; u'qituvchi mustaqil ishlarni bajarish jarayonida boshqaruv hujjatlarini amalga oshirish: mustaqil ishlarning borishini kuzatish, ishning oraliq va yakuniy natijalarini o'zi nazorat qilishi, ish dasturini tuzatish, xatolar va ularning sabablarini bartaraf etish kerak. Mustaqil ta'lim hududi grafik ravishda bir-birining ustiga tushadigan bitta markazga ega bo'lgan turli diametrli doiralar to'plami sifatida ifodalanishi mumkin. Bundan tashqari, kattaroq diametrli doiralar kichikroq diametrli boshqa doiralar ostida yotadi. Doiralar mos keladigan doiralar diametrlari markazlarining mos kelishini hisobga olgan holda kattadan kichikka tomon bir-birining ustiga qo'yilgan. Shunday qilib, ta'lim maydoni – bu murakkab ko'p darajali hodisa bo'lib, u o'quv jarayoni sodir bo'ladigan ko'p muhitli haqiqatdir.

Bo'lajak surdopedagoglarning mustaqil ishi-bu o'quv mehnat turi bo'lib, u mashg'ulotlarda mustaqil bilim faoliyatini amalga oshirishni ta'minlaydi, talabalarning mustaqilligini insoniy fazilat sifatida shakllantirishga hissa qo'shadi, shuningdek, o'quv va ilmiy bilimlarni egallash vositasi hisoblanadi. Mustaqil ish o'qituvchining bevosita ishtirokisiz amalga oshiriladigan, bilish jarayonlar dinamikasining katta faolligi e'tirof etilgan frontal, guruh va individual o'quv faoliyatining bir turi sanalib, uning mazmuni

o'quvchilarning shaxsiy pozitsiyasi va atrofdagi voqelik hodisalarini baholashlari, shuningdek, boshqalardan mustaqil ravishda harakat qilish doirasi mavjudligini o'z ichiga oladi.

Zamonaviy ilmiy va uslubiy adabiyotlar tahlili, talabalarning mustaqil ishini to'g'ri tashkil etilganligi nafaqat o'quv jarayoni samaradorligini sezilarli darajada oshirishga, shu jumladan o'zida bilim, ko'nikmalarni mustahkam, chuqur o'zlashtirishga, tahlil qilish, tizimlashtirish va o'quv materiallarini tavsiflashga, fan ichida va fanlararo aloqani o'rnatishga, shakllangan bilimlarni amaliyotda qo'llashga yordam berishini isbotladi. Shuningdek, mustaqil ta'lim muhim insoniy fazilatlarining – mustaqillik, tashabbuskorlik, qo'yilgan vazifalarga ijodiy yechim topish, mavjud imkoniyat va qobiliyatlarni maksimal rivojlantirish va qo'llay olishga ham ko'mak beradi. Shuning uchun talabalarning auditoriyadan tashqari mustaqil ishlari kursi faol ravishda mutaxassislarni tayyorlash tizimida ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanadi. Bu yangi avlod oliy ta'limining davlat standartlarida o'z aksini topgan bo'lib, u o'quv davrining 50 foiz hajmida auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarni ko'zda tutadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Макаров А.В. Проектирование стандартов нового поколения по циклу социально-гуманитарных дисциплин. – Мн.: РИВШ
2. Боскис, Р. М. Глухие и слабослышащие дети [Текст] Р. М. Боскис. — М., 1963
3. Полонский В.М. Оценка качества научно-педагогических исследований / В.М. Полонский. - М.: Педагогика, 1987.
4. Pulatova S.M. “Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni sensor jihatdan rivojlantirishning samarali usullari”. Tashkent “Maktab va hayot” ilmiy-metodik jurnal. 5son 2018 yil.
5. Урунова Захро Низамитдиновна. (2022). ТЕХНОЛОГИЯ ИНТЕРАКТИВНОГО ПОДХОДА В ФОРМИРОВАНИИ КОГНИТИВНО-РЕЧЕВЫХ ЗНАНИЙ И УМЕНИЙ У УЧАЩИХСЯ С НАРУШЕНИЯМИ СЛУХА. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 9, 122–125. Retrieved from <http://www.ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/187>
6. Dilfuzakhon I. THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF COMMUNICATION IN STUDENTS WITH HEARING PROBLEMS //Open Access Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 108-110. [https://scholar.google.com/scholar?cluster=17826721708789248981&hl=ru&as\\_sdt=2005&scioldt=0,5](https://scholar.google.com/scholar?cluster=17826721708789248981&hl=ru&as_sdt=2005&scioldt=0,5)
7. Haydarova O. F. DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE SURDOPEDEAGOGS THROUGH THE OPTIMIZATION OF INDEPENDENT EDUCATION //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – Т. 2. – №. 04. – С. 102-107. <https://www.eipublication.com/index.php/eijmrms/article/view/101>
8. Урунова З. Н., Есимбетова П. А. ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В СПЕЦИАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ //European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2023. – Т. 11. – С. 8-12.
9. Урунова З. Н. ТЕХНОЛОГИЯ ИНТЕРАКТИВНОГО ПОДХОДА В ФОРМИРОВАНИИ КОГНИТИВНО-РЕЧЕВЫХ ЗНАНИЙ И УМЕНИЙ У УЧАЩИХСЯ С

НАРУШЕНИЯМИ СЛУХА //European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2022. – Т. 9. – С. 122-125.

10. Халдаров Х., Урунова З. Интеллектуальные системы в сурдопедагогике и инклюзивном образовании //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 76-79.

11. Dilfuzakhon I. THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF COMMUNICATION IN STUDENTS WITH HEARING PROBLEMS //Open Access Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 108-110.

12. Isroilovna, Karabaeva Dilbar. "DEVELOPMENT OF SPEECH OF ELEMENTARY SCHOOL PUPILS WITH HEARING IMPAIRMENT IN TECHNOLOGY LESSONS." European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies 3.03 (2023): 31-36.

13. Isoqjonova D. M. PECULIARITIES OF SPEECH DEVELOPMENT LAWS IN CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENT //Thematics Journal of Education. – 2022. – Т. 7. – №. 5.

14. Isokjonova D., Vasilova K. THE USE OF GAME TECHNOLOGIES IN SPEECH TEACHING KIDS WHO HAVE A PROBLEM WITH HEARING //Thematics Journal of Education. – 2021. – Т. 6. – №. October.